

ASTRAGALUS DASYANTHUS L O‘SIMLIGINING TARKIBI VA XALQ TABOBATIDA QO‘LLANILISHI

Muxtorova Shaxzodaxon Madaminjon qizi

Qo‘qon davlat pedagogika instituti doktoranti

Xo‘jayev Vaxobjon Umarovich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti professori, kimyo fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada Astragalus dasyanthus L-kiyikpanja o‘simligining morfologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi hamda inson organizmi uchun foydali xususiyatlari haqida ma`lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Astragalus dasyanthus L, kiyikpanja, kimyoviy tarkib, vitamin, makro- va mikroelementlar.

COMPOSITION OF ASTRAGALUS DASYANTHUS AND ITS USE IN MEDICINE

Muxtorova Shaxzodaxon Madaminjon qizi

Doktoral student of Kokand State Pedagogical Institute

Xo‘jayev Vaxobjon Umarovich

Professor of Kokand State Pedagogical Institute, Doctor of chemical sciences

Abstract. This article provides information on the morphological characteristics, chemical composition and beneficial properties of Astragalus dasyanthus L.

Keywords. Astragalus dasyanthus l, chemical composition, vitamins, macro- and microelements.

Yurtimizda dorivorlik xususiyatiga ega hamda qadimdan xalq tabobatida qo‘llanib kelinadigan o‘simliklar talaygina. Bunday o‘simliklar sirasiga Dukkakdoshlar-Fabaceae oilasiga mansub Astragalus dasyanthus l-kiyikpanja misol bo‘ladi. Fabaceae oilasi 500 turkumga oid 12000 dan ortiq turni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda 57 turkumga mansub 500 ga yaqin tur o‘sadi. Oila vakillariga bir, ikki va ko‘p yillik o‘tlar, yarim buta, buta, daraxtlar kiradi. Gul formulasi

quyidagicha $Gk_{(5)}Gt_{1+2+(2)}Ch_{(9)+1}U_1$ tuzilishga ega bo‘lib, gulqo‘rg‘oni murakkab, kosachasi bir-biri bilan yarmigacha qo‘shilgan 5 ta kosachabargdan tashkil topgan. Gultoj bargi 5 ta 3 xil shakldagi toj bargdan iborat kapalak shaklida bo‘ladi. Changchilari 10 dona bo‘lib, 9 tasining iplari bir-biri bilan qo‘shilib ketgan, urug‘chilarining soni 1 ta.

Astragalus turkumi oilaning eng yirik turkumi bo‘lib 3300 ga yaqin turni o‘z ichiga oladi. O‘rta Osiyoda 500 dan ortiq hamda O‘zbekistonda 250 turi o‘sadi [1,2,3]. O‘zbekiston, Armaniston, Ozarbayjonning janubidagi tog‘li hududlarda uchraydi [4]. Asosan, qir va tepaliklarda, dalalarda, yong‘oqzorlar chekkasida o‘sadi. Farg‘ona viloyatida *Astragalus rubellus*, *Astragalus auratus*, *Astragalus borissianus*, *Astragalus dianthoides*, *Astragalus austroferganicus* kabi turlari mavjud [5].

Kiyikpanjaning bo‘yi 14-40 sm, shoxlari mallarang paxmoq, 12-14 juft nashtarsimon murakkab bargga ega hamda ular poya va shoxlarda ketma-ket joylashadi. Uning to‘pgullari sariq rangli, mevasi tuxumsimon, pishganda ochilmaydigan dukkak. Uning yer ustki qismi, ildizi ishlatiladi. Gullari may-iyun oylarida gullaydi, gullash davrida o‘rib olinadi. Uzunligi 15-20 mm bo‘lib, zigomorf. Ildizining uzunligi 40 sm, u bakteriyalar yordamida atmosferadagi azotni o‘zlashtiradi [6].

Kiyikpanja tarkibida temir, natriy, kalsiy, magniy, fosfor, kremniy, marganes, selen kabi makro va mikroelementlar, A, B, C, E vitaminlari, organik kislotalar, flavanoidlar, steroidlar, efir moylari mavjud. Poyasi va shoxlaridan tragakant (anzirat, anzarut) nomli yelim ajralib chiqib tarkibida 60 % bassorin, 8-10 % arabin, uglevodlar saqlaydi [7]. Moddalar almashinuvida, qandli diabetda, revmatizmni davolashda foydalaniladi.

Qadimda Ibn Sino kiyikpanjadan ko‘z kasalliklarida, nafas yo‘llari, o‘pka xastaliklarida foydalangan. Ukraina va Xitoy xalq tabobatida siydik haydovchi vosita sifatida, qandli diabetda, teridagi mayda yara va toshmalarni davolashda, asab kasalliklarida, bo‘g‘im og‘riqlarida, ildizidan me‘da-ichak xastaliklarida foydalanib kelingan. Bundan tashqari zamonaviy tibbiyotda tinchlantiruvchi, qon tomirlarini kengaytiruvchi sifatida, yurak ishemik kasalliklarida, tish va milk kasalliklarida, gipertoniyada qon bosimini normallashtirishda, aterosklerozda ishlatiladi. Yelimidan moddalar almashinuvida, qandli diabetda, revmatizmni davolashda foydalaniladi [6,8].

Xulosa qilib aytganda, kiyikpanja o‘zining noyob kimyoviy tarkibi hamda foydali xususiyatlari bilan muhim amaliy ahamiyatga ega. Ammo O‘zbekiston hududida o‘svuchi kiyikpanjaning kimyoviy tarkibi to‘liq o‘rganilmagan. Shuning uchun uning kimyoviy tarkibini o‘rganish va shu asosida biologik faol qo‘shimchalar tayyorlab xalq tabobatida keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish inson salomatligiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.A.Matkarimova, T.X.Mahkamov, M.M.Maxmudova, X.Ya.Azizov, G.B.Vaisova. Botanika (O‘quv qo‘llanma). T.2018, 248-bet.
2. M.M.Abdulxayeva, M.S.Yusupova, D.S.Abdulxayeva. Biologiya. Toshkent-2012, 76-bet.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Astragal>
4. K.T.Berdiyev, M.X.Hakimova, G.B.Maxmudova O‘rmon dorivor o‘simliklari. Toshkent-2016. 113-114-b.
5. E.Yu.Ro‘zimatov, Sh. Foziljonov, X.E.Yuldashev “Farg‘ona vodiysi kamyob o‘simlik turlari” atlas lug‘ati. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2021, 10-11-betlar.
6. Asqarov I. Tabobat qomusi. Toshkent.2019, 517-518 b.
7. <https://altaivita.ru/blog/astragal/>
8. Kodirova M. S. АСТРАГАЛ ШЕРСТИСТОЦВЕТКОВЫЙ (ASTRAGALUS DASYANTHUS PALL.) "Экономика и социум" №3(82) ч.2 2021. 72-с.

Research Science and
Innovation House

